

"EDFIX" MCHJning edfix.uz online o'quv platformasining jismoniy shaxslarga yo'llagan

OMMAVIY OFERTASI

Ommaviy oferta saytga joylangan 11-iyun, 2024-yil

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Xadra MFY, Xadra mavzesi, 1-uy manzili bo'yicha joylashgan "EDFIX" MCHJ ("Milliy bank" Chilonzor tumani filiali hisob raqami № 20208000305728490001, MFO 00450, STIR 310983394, Davlat guvohnomasi raqami № 2326844), bunday keyin "Xizmat ko'rsatuvchi" deb yuritiladi; ushbu ommaviy ofertani akseptlovchi jismoniy shaxslarga (kelgusida "foydalanuvchi") ushbu ofertada aks etgan shartlar asosida o'quv materiallarni onlayn taqdim etish xizmatlarini (bundan keyin "onlayn o'quv kursi" yoki "xizmatlar" deb yuritiladi) taqdim etadi.

1.2. Ushbu ommaviy oferta zamonaviy kasblarni o'rganish bo'yicha o'quv materiallarini onlayn taqdim etish xizmati bo'yicha tuzilgan shartnoma hisoblanadi. Bundan keyin matn bo'yicha shartnoma (ushbu shartnoma) va oferta (ushbu oferta) atamaları bir xil ahamiyatga ega.

1.3. Ommaviy oferta shartlari, shartnoma tomonlari rioya qilishlari kerak bo'lgan boshqa talablar onlayn o'quv kursining qoidaları hisoblanadi.

1.4. edfix.uz saytida yoki uning subdomenlarida ro'yxatdan o'tish jarayonida ommaviy oferta shartlarini qabul qilgan (aksept) vaqtdan boshlab shartnoma kuchga kirgan hisoblanadi.

II. FOYDALANILGAN ATAMALAR IZOHI

2.1. edfix.uz onlayn o'quv platformasida xizmat ko'rsatish uchun tuzilgan mazkur shartnomada qo'llangan atamalar quyidagicha tushuniladi:

Shartnoma – edfix.uz onlayn o'quv platformasida xizmat ko'rsatiluvchi amaldagi ushbu ommaviy oferta tushuniladi. Oferta matni internetdagi edfix.uz subdomenlarining ro'yxatdan o'tish qismlaridajoylashtirilgan.

Ariza – Foydalanuvchining saytdagi shaxsiy kabineti, ro'yxatdan o'tgan elektron pochta manzili orqali qilgan murojaatlari.

Zamonaviy kasblar – edfix.uz taqdim etuvchi xizmatlar asosida o'rganiladigan darslarga oid kasblar.

edfix.uz – zamonaviy kasblarni onlayn o'rganishga mo'ljallangan o'quv materiallari va edfix.uz domen hududida joylashgan, o'zida ma'lumotlar, matnlar, grafik elementlar, dizayn, tasvir, foto va videomateriallar, intellektual faoliyatning boshqa natijalarini jamlagan materiallar to'plami joylashgan veb-sayt va "EDFIX" MCHJning mulki. Kelgusida "sayt" yoki "platforma" deb yuritiladi. Shartnomadagi "sayt" va "platforma" so'zlari bir xil ma'noni anglatadi.

O'quv kursi – video, audiovizual, matn fayllar tarzida bitta mavzu va nom bilan birlashtirilgan o'quv materiallarining to'plami. O'quv kurslar tavsifi saytda taqdim etiladi. O'quv kurslari tarkibiy o'zgartirib borilishi mumkin.

Shaxsiy kabinet – foydalanuvchining saytda ro'yxatdan o'tishi natijasida shakllangan, himoyalangan sahifalar to'plami. Oferta shartlari doirasida sayt funksiyalaridan foydalanishi mumkin bo'lgan sahifa. Shaxsiy kabinetga kirish foydalanuvchining saytda kirishda ko'rsatgan ma'lumotlari (login va parol) asosida amalga oshiriladi.

Shaxsiy ma'lumotlar – Foydalanuvchining ismi, familiyasi, otasining ismi, jinsi, tug'ilgan sanasi, e-mail pochta manzili, telefon raqami, "cookie" va boshqa ma'lumotlari.

Foydalanuvchi imzosi analoglari – foydalanuvchi shaxsiy kabinetdagi ro'yxat yozuvlari, tasdiqlangan telefon raqami va tasdiqlangan elektron pochta manzili.

O'quv materiallari - o'quv kurslari tarkibidagi axborot va boshqa materiallar (ilmiy ishlar, audiovizual ma'lumotlar, video ma'ruzalar va h.k.) intellektual faoliyat natijalaridir. Ko'rsatilgan materiallarga nisbatan intellektual huquq "Najot ta'lim markazi" MChJga (yoki uning intellektual mulk bilan bog'liq shartnomaviy munosabatlari asosida uchinchi shaxslarga) tegishlidir.

Foydalanuvchi – internetda <https://edfix.uz/oferta.pdf> manzili bo'yicha joylashgan ofertaning shartlarini qabul qilgan va saytda ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxs.

"EDFIX" MCHJ – yuridik shaxs sifatida O'zbekiston Respublikasida bo'yicha ro'yxatdan o'tgan, **edfix.uz** online o'quv platformasining huquqiy muallifi hisoblangan muassasadir. "Edfix", "Edfix onlayn platformasi" kabi jumlar teng qiymatlidir va bunda Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Xadra MFY, Xadra mavzesi, 1-uy manzili bo'yicha joylashgan **"EDFIX" MCHJ** tushuniladi.

SMS-kod – foydalanuvchiga saytdan ro'yxatdan o'tayotganda va saytga login orqali kirayotgan paytda jismoniy shaxs mobil telefon raqami yoki elektron pochta yuborilgan olti belgidan iborat raqamli kod.

Tomonlar – foydalanuvchi va platforma (edfix.uz).

Hisob – ko'rsatilgan xizmat va topshirilgan mahsulot (o'quv materiallari) haqqini to'lash uchun taqdim etilgan, shaxsiy kabinetdan yoki foydalanuvchining ro'yxatda o'tish vaqtidagi elektron pochta manziliga yuborilgan to'lov xabarnomasi.

Xizmatlar – edfix.uz saytida zamonaviy kasblarni o'rgatish bo'yicha o'quv materiallarini onlayn taqdim etish va shu sayt orqali ko'rsatiladigan boshqa xizmatlar.

2.2. Atamalar bo'yicha tushunmovchilik yuzaga kelganda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari va Internetning texnik talablariga muvofiq hal qilinadi.

III. SHARTNOMA TUZISH TARTIBI

3.1. Shartnoma, ya'ni ommaviy ofertaning matni internetdagi (oferta linki) manzilida doimo mavjud bo'lib, saytda ro'yxatdan o'tish vaqtida ko'rish va tanishish lozim bo'ladi. Shartnoma matni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 369-moddasiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi.

3.2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 370-moddasiga asosan foydalanuvchi tomonidan quyidagi harakatlarning amalga oshirilishi mazkur taklifni to'lig'icha akseptlash (qabul qilish) hisoblanadi:

3.2.1. Saytda (edfix.uz) ro'yxatdan o'tish;

3.2.2. Tanlagan o'quv kursi uchun to'lovni amalga oshirish.

IV. SHARTNOMA PREDMETI

4.1. Xizmat lo'rsatuvchi (edfix.uz) foydalanuvchining arizasiga binoan, tanlangan onlayn o'quv kursining tavsifida ko'rsatilgan miqdorda va belgilangan vaqt davomida xizmat ko'rsatishni va foydalanuvchi bunday xizmatlarni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini zimmasiga oladi.

V. HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Foydalanuvchining huquq va majburiyatlari.

5.1.1. Foydalanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

5.1.1.1. To'lovni amalga oshirib sotib olgan onlayn o'quv materiallaridan belgilangan muddat davomida foydalanish huquqiga ega.

5.1.1.2. Ushbu oferta shartlari bilan tanishish

5.1.1.3. Onlayn o'quv kursini to'liq o'tishi;

5.1.1.4. Belgilangan muddatgacha uy vazifalarini bajarishi va tekshirishga topshirish;

5.1.2. Foydalanuvchi quyidagi majburiyatlarga ega:

5.1.2.1. Ushbu oferta shartlariga rioya qilish;

5.1.2.2. Onlayn o'quv kursi materiallarini qonunga qarshi maqsadlarda ishlatmaslik, platforma bilan o'zaro bog'liq uchinchi shaxslarga zarar yetkazadigan harakatlarni bajarmaslik, shuningdek, o'zining qurilmasidagi dasturiy ta'minotni, o'quv materiallarni tarqatmaslik va tarqatishga imkon yaratmaslik, foydalanuvchi ma'lumotlarini sohtalashtirmaslik, dasturiy ta'minotning, saytning normal ishlashiga to'sqinlik qiluvchi harakatlarni amalga oshirmaslik;

5.1.2.3. O'quv kursi materiallaridan faqat yakka o'zi ta'lim olish maqsadida foydalanishi;

5.1.2.4. Uchinchi shaxslarga topshirishi yoki boshqa oferta qoidalarini buzuvchi maqsadlarda foydalanmasligi;

5.1.2.5. Oferta, saytdan foydalanish bo'yicha Yo'riqnoma talablariga to'liq amal qilish;

5.2. Platformaning huquq va majburiyatlari.

5.2.1. Platforma quyidagi huquqlarga ega:

5.2.1.1. Foydalanuvchilarga xizmatlardan foydalanish, bu xizmatlar uchun hisob-kitoblar, xizmat sifati masalalari yuzasidan maslahat berilishini uyushtirishi;

5.2.1.2. Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini muhofaza qilish uchun zarur choralar ko'rgan va ma'lumotlarning konfidensialligini ta'minlashga qaratilgan qonun hujjatlarida belgilangan boshqa talablarga rioya qilgan holda qayta ishlash;

5.2.2. Xizmat ko'rsatuvchi quyidagi majburiyatlarga ega:

5.2.2.1. Ofertada va o'z saytida ko'rsatilgan xizmatlarni taqdim etishi;

5.2.2.2. Onlayn o'quv kurslaridan foydalanuvchilarga xizmatlarni ko'rsatish chog'ida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish choralari ko'rishi;

5.2.2.3. Ushbu shartnomada aks etgan boshqa majburiyatlar.

VI. XIZMAT KO'RSATISH TARTIBI

6.1. Ommaviy oferta foydalanuvchi tomonidan qabul qilinib, ro'yxatdan o'tgan va to'lovni amalga oshirgan vaqtdan boshlab sayt o'quv materiallaridan foydalanish imkoniyati beriladi.

6.2. edfix.uz onlayn o'quv platformasida ko'rsatilgan xizmatlarni faqatgina sayt, shaxsiy kabinet va o'quv kursiga tegishli boshqa dasturiy ta'minotlar orqali taqdim etadi.

6.3. O'quv kursining materiallariga xizmat ko'rsatuvchi tomonidan o'zgartirishlar, qo'shimchalar kiritilishi mumkin. Platforma orqali xizmat ko'rsatish quyidagilardan iborat:

6.3.1. Xizmat ko'rsatuvchi tomonidan belgilangan miqdorda video darslar joylash, kerakli vaqtda vebinarlar o'tkazish;

6.3.2. Xizmat ko'rsatuvchi tomonidan onlayn o'quv kursi bilan bog'liq boshqa harakatlar, jumladan:

6.3.2.1. Kurs doirasida foydalanuvchiga berilgan topshiriqlarning (tasklar) bajarilishini tekshirish va baholash;

6.3.2.2. Kurs doirasida foydalanuvchiga maslahatlar berish.

6.4. Xizmat ko'rsatish muddati:

6.4.1. Har bir o'quv kursi tarkibi, tavsifi va miqdori o'ziga xos bo'lishi mumkin. Va bu ma'lumotlar veb saytda ko'rsatilgan bo'ladi, o'zgarib turishi mumkin.

6.4.2. Kursga qilingan bir martalik to'lov 1 (bir) yil davomida amal qiladi va shu davr mobaynida kursdan ushbu shartnoma va qonunchilikda ta'qiqlangan harakatlarni sodir etmagan holda foydalanish huquqini beradi.

6.4.3. Platformadagi o'quv materiallari doimo 24 soat davomida aktiv holatda bo'ladi. Saytdan foydalanish vaqtini foydalanuvchi o'zi erkin belgilaydi.

6.4.4. Platforma yordam xizmatining xodimlarining ish vaqti haftaning dushanba-juma kunlari soat 9:00 dan 18:00 gacha hisoblanadi. Vaqt mintaqasi sifatida xizmatlar davomida faqatgina UTC/GMT +5 Toshkent mintaqasi vaqti hisobga olinadi.

6.5. Agar foydalanuvchi murojaat qilgan bo'lsa, platforma foydalanuvchiga onlayn o'quv kurslari bo'yicha qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatishi mumkin, foydalanuvchi esa bunday xizmatlar uchun qo'shimcha pul to'lash majburiyatini oladi.

6.6. Qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish narxi va muddatlari xizmat ko'rsatuvchi tomonidan saytdagi xabarnomalarda yoki platforma ma'muriyati tomonidan foydalanuvchiga bildiriladi.

6.7. Shaxsiy kabinetni foydalanuvchi tomonidan ishga tushirilishi uning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlanishiga rozilik berganligini anglatadi.

VII. MOLIYAVIY SHARTLAR

7.1. Platforma onlayn o'quv kurslarining tavsifi va narxlari saytda har biri uchun alohida ko'rsatilgan bo'ladi. Foydalanuvchi o'zi tanlab to'lovni amalga oshiradi.

7.2. Foydalanuvchi shartnomaning 7.1-bandiga asosan tanlagan o'quv kursi uchun to'lovni oldindan to'liq to'laydi. Shartnomada aniq belgilangan holatlar yoki foydalanuvchi va xizmat ko'rsatuvchi o'rtasida alohida kelishilgan holatlar bundan mustasno. Foydalanuvchi o'quv kursi sahifasida ko'rsatilgan pul to'lovlari xizmat ko'rsatuvchi tomonidan jalb qilingan onlayn to'lov xizmat(lar)ining dasturiy vositalari yordamida o'tkazadi yoki xizmat ko'rsatuvchi ma'muriyatiga shaxsan to'laydi. Bunda tomonlar xizmatlar, agregatorlar va/yoki to'lovlarni yetkazib beruvchilar ushbu pul mablag'larini o'tkazish uchun haq olib qolishlariga rozilik bildiradi.

7.3. Agar foydalanuvchi Shartnomaning 7.1-bandida ko'rsatilgan xizmat haqqini to'lamagan bo'lsa, xizmat ko'rsatuvchi ushbu shartnomadagi xizmatlarini ko'rsatmaslik huquqiga ega.

7.4. Xizmat haqqi to'langanidan so'ng o'quv kursi sotib olingan hisoblanadi. Agar foydalanuvchi xizmatning taqdim etilishini *Kurs kontenti sifati kutilgan talablarga javob bermaganligi*(*Videodarsliklar sifati past, Uy vazifalari yetarli darajada yaxshi emas*), *Kurs kontenti o'ta qiyin va tushunarsizligi* kabi asosli sabablar bilan 7 (yetti) kun ichida rad etsa va rad etganidan so'ng 1 (bir) kun ichida bu haqida ariza yozsa, xizmatlar, agregatorlar va/yoki to'lovlarni yetkazib beruvchilar ushbu pul mablag'larini o'tkazish uchun olib qolgan haqlaridan tashqari to'langan mablag'larni to'lovchiga qaytarilishi mumkin. Agar foydalanuvchi xizmat haqqi to'langanidan 7 (yetti) kun keyin yoki asossiz sabablar bilan xizmatning taqdim etilishini rad etsa yoki rad etganidan keyin 1 kun to'lgandan keyin ariza yozsa, sayt materiallaridan foydalanish imkoni ochildirilganligi va to'lov uchun xizmat ko'rsatish to'liq amalga oshirilganligi sababli to'langan mablag'lar to'lovchiga qaytarilmaydi.

7.5. Agar foydalanuvchi xizmatni Shartnomaning 7.4-bandida ko'rsatilgan shartlarga ko'ra rad etsa, unga 30 (o'ttiz) ish kuni muddati ichida to'langan mablag'lar qaytariladi.

VIII. TOMONLAR JAVOBGARLIGI VA XIZMATDAN FOYDALANISH QOIDALARINI BUZISH

8.1. Xizmat ko'rsatuvchi shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi, onlayn o'quv kursi xizmatlarini ko'rsatishning e'lon qilingan sifati, ularni ko'rsatish muddatlari va kamchiliklarini bartaraf etish muddatlarining buzilganligi uchun O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari yoki ushbu shartnomada ko'zda tutilgan tartib va miqdorda javobgar bo'ladi.

8.2. Agar foydalanuvchi shartnoma shartlarini, O'zbekiston Respublikasi qonunlarini, axloq va odob normalarni yoki texnik talablarni buzsa, xizmat ko'rsatuvchi foydalanuvchining shaxsiy kabinetini bloklash yoki butunlay o'chirish, saytga, o'quv kursi materiallarining ba'zi yoki barcha funksiyalaridan foydalanishni sababini tushuntirmasdan taqiqlash yoki cheklash huquqiga ega.

8.3. Xizmat ko'rsatuvchi faqatgina o'z xato kamchiliklari uchun javobgarlikni zimmasiga oladi.

8.4. Xizmat ko'rsatuvchi foydalanuvchi qurilmasidagi dasturiy ta'minotining (tizim vositalari) soz ishlashini ta'minlamaydi. Bunday dasturiy ta'minotlarni foydalanuvchi o'zi sotib oladi va/yoki o'rnatadi.

8.5. Foydalanuvchiga sayt va uning dasturiy ta'minoti, shu jumladan, shaxsiy kabinet taqdim etiladi. Saytga kirishni ta'minlaydigan simli va simsiz aloqa operatorlariga, ularning filiallari, yetkazib beruvchilari, xizmat agentlarining ish sifatiga, xizmatiga hech qanday kafolat bermaydi.

8.6. Sayt va shaxsiy kabinet interfeysi foydalanuvchilarning talablariga mos kelishini, uchinchi tomonga bog'liq bo'lgan holatlarda saytga va shaxsiy kabinetga kirishni doimiy, tez, ishonchli va xatosiz taqdim etilishini kafolatlamaydi.

8.7. Foydalanuvchilarning saytga va/yoki shaxsiy kabinetga kirish imkoniyati bo'lmaganligiga olib kelgan, xizmat ko'rsatuvchi yoki foydalanuvchi tomonidan sodir bo'lgan dasturiy ta'minot va apparat xatolari, shartnomaga muvofiq xizmat majburiyatlarini bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

8.8. Foydalanuvchi tuzilgan shartnomada ko'zda tutilgan majburiyatlarni va taqiqlarni buzgan holda xizmat ko'rsatuvchi shartnomani bajarishdan bosh tortish huquqiga ega va shartnomani bir tomonlama bekor qilishi mumkin.

IX. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

9.1. Bajarish bilan bog'liq bo'lgan barcha nizolar, tortishuvlar va shikoyatlar, shartnomani bekor qilish holatlarni tomonlar muzokaralar orqali hal qilishga harakat qilinadi. Shikoyatlar va/yoki kelishmovchiliklar yuzaga kelganda tomonlar shartnomaning 9.1 bandiga ko'ra, boshqasiga bu haqda xabar jo'natadi;

9.2. Xabarga javob yuboruvchi tomon tegishli xabar kelgan paytdan e'tiboran 30 (o'ttiz) kun ichida qaror qabul qilmasa yoki tomonlar paydo bo'lgan har qanday da'vo va/yoki kelishmovchiliklar haqida kelishuvga kelmasa, amaldagi qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, tomonlar nizoni platforma joylashgan joydagi sudga ariza bilan murojaat etadilar.

X. FORS-MAJOR

10.1. Ushbu shartnoma maqsadlari uchun Fors-major to'g'risida e'lon qilayotgan tomon barcha oqilona xatti-harakatlariga qaramay, oldini olish, yengib o'tish yoki cheklash imkoniyatiga ega bo'lmagan qandaydir voqea-hodisani bildiradi, shu jumladan, urush, ommaviy tartibsizliklar, ish tashlashlar, davlat hokimiyati organlarining qarorlari, embargo, yong'inlar, portlashlar, suv toshqinlari yoki boshqa tabiiy va texnogen ofatlar, ushbu voqea-hodisa O'zbekiston Respublikasida yoki uning tashqarisida sodir bo'lganligidan qat'i nazar fors-major holatlar sirasidandir.

Mablag'ning mavjud emasligi yoki yetishmasligi fors-major holati bo'lib hisoblanmaydi.

10.2. Istalgan fors-major holati yuzaga kelganda, ushbu shartnoma bo'yicha qaysidir majburiyatning (pul to'lash to'g'risidagi majburiyatdan tashqari) tomon tarafidan bajarilishi bunday fors-major holatiga taalluqli bo'lsa, ziyon ko'rgan tomon darhol ikkinchi tomonni fors-major holatlarining mavjudligi, boshqa tomonga ziyon va zararni kamaytirish va ziyon ko'rgan tomonga ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish qobiliyatini tiklash uchun barcha kerakli choralarni ko'rish to'g'risida yozma shaklda xabardor qiladi («Fors-major to'g'risida bildirish»).

Fors-major to'g'risidagi bildirish:

fors-major voqea-hodisasini ko'rsatishi;

ziyon ko'rgan tomonning o'z majburiyatlarini bajarish qobiliyatiga uning ta'sirini oqilona tafsilotlar bilan tavsiflash;

ushbu tomon tarafidan boshqa tomonga yetkaziladigan ziyon yoki zararni kamaytirish va ziyon ko'rgan tomonning ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish qobiliyatini tiklash uchun ko'riladigan choralarni tavsiflash.

10.3. Yuzaga kelgan favqulodda holatlar to'g'risida bildirmaslik yoki o'z vaqtida xabar qilmaslik tegishli tomonni shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilmaganligi uchun uni javobgarlikdan ozod qiluvchi asos sifatida bu holatlardan biriga havola qilish huquqidan mahrum qiladi.

10.4. Agar fors-major bilan bog'liq holda tomonlardan biri ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarining bajarilishini kechiktirsa, bunday kechiktirish davri ushbu shartnomada ko'zda tutilgan muddatlarni hisoblashda hisobga olinmaydi va bu tomon fors-major holati sabab bo'lgan bajarmaslik doirasida shartnoma bo'yicha olingan majburiyatning kechiktirib bajarganligi uchun haqli deb topiladi, ammo fors-major tufayli tomonlardan biri fors-major to'g'risidagi bildirish uzatilganidan keyin ikki oy davomida o'z majburiyatlaridan qaysi birlarini bajara olmasa, tomonlar ushbu fors-major holatining oqibatlarini aniqlash uchun darhol maslahatlashishlari va vaziyatga bog'liq holda tomonlarning ixtiyoriga ko'ra kerakli

choralarni qabul qilishlari kerak. Agar tomonlar fors-major to'g'risida bildirish topshirilgan kundan boshlab uch oy davomida o'zaro maqbul choralarni bo'yicha bitimga kelishmasa, tomonlardan har biri ushbu shartnomani bekor qilishi mumkin

XI. YAKUNIY QOIDALAR

11.1. Tomonlar ushbu shartnomani bajarishda (o'zgartirish, qo'shimcha kiritish, bekor qilish), shuningdek, boshqa masalalar bo'yicha yozishmalar o'tkazishda tomonlarning imzosining analoglaridan foydalanishga ruxsat berishlarini tasdiqlaydi. Tomonlar imzolangan oferta va akseptdan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish doirasida barcha bildirishnomalari, xabarlari, shartnomalari va hujjatlari tomonlar uchun yuridik kuchga ega va bajarish uchun majburiydir. Imzosining analoglari sifatida shaxsiy kabinetdagi ro'yxat yozuvlari, tasdiqlangan elektron pochta manzili va SMS-kod bilan tasdiqlangan mobil telefon raqami hisoblanadi.

11.2. Tomonlar vakolatli elektron pochta manzili va shaxsiy kabinet orqali yuborilgan barcha bildirishlar, xabarlar, bitimlar, hujjatlar va xatlar teskarisi aniq ko'rsatilmagan bo'lsa, tomonlar tomonidan yuborilgan va imzolangan deb hisoblanadi.

11.3. Tomonlar ushbu elektron pochta manzilini vakolatli deb tan oladilar:

11.3.1. Xizmat ko'rsatuvchi uchun edfixuz@gmail.com elektron pochta manzili belgilandi.

11.3.2. Foydalanuvchilar uchun saytda ro'yxatdan o'tishda ko'rsatilgan elektron pochta manzili olinadi. Foydalanuvchi mobil telefon raqami deb saytda ro'yxatdan o'tishda ko'rsatilgan mobil telefon raqam tan olinadi.

11.4. Tomonlar vakolatli elektron pochta manzili va shaxsiy hisobga kirish uchun zarur bo'lgan axborot va ma'lumotlarning maxfiylikni ta'minlashga, uchinchi shaxslarga bunday ma'lumotlarni oshkor qilinishiga yo'l qo'ymaslik majburiyatini oladi.

11.5. Foydalanuvchi tomonidan maxfiylikni buzganligi to'g'risida ma'lumot olinmaguncha, vakolatli manzil orqali amalga oshirilgan va yuborilgan barcha harakatlar va hujjatlar bu kabi harakatlar va hujjatlar bo'lsa ham, foydalanuvchi shaxsiy kabineti va elektron pochta manzili tomonidan boshqarilgan va yo'naltirilgan deb hisoblanadi. Bunday vaziyatda huquq va majburiyatlar, shuningdek mas'uliyat ham foydalanuvchi tomonida bo'ladi.

11.6. Maxfiylikni buzganlik to'g'risida ishonarli ma'lumot olinmaguncha platformada ro'yxatdan o'tgan elektron pochta manzili orqali yuborilgan va jo'natilgan barcha harakatlar va hujjatlar, hatto bunday harakatlar va hujjatlar boshqa shaxslar tomonidan sodir etilgan va yuborilgan bo'lsa ham, mukammal hisoblanadi.

XII. SHARTNOMA SHARTLARINI O'ZGARTIRISH

12.1. Xizmat ko'rsatuvchi bir tomonlama ofertaning shartlarini o'zgartirish huquqiga ega va ushbu o'zgarishlar internetda <https://edfix.uz/oferta.pdf> manzilida e'lon qilinganidan keyin kuchga kiradi. Shu bilan birga, shartnomaning eski versiyasiga asosan to'lovlar to'lanishi shartnomaning yangi versiyasini yuklashdan oldin amalga oshirilgan bo'lsa, o'quv kursi xizmatini taqdim etish muddati tugagunga qadar tomonlar uchun amal qiladi.

XIII. SHARTNOMA MUDDATI

13.1 Ushbu shartnomaning amal qilish muddati uni tuzish (Ofertani akseptlash sanasi) (3.2-band) paytidan boshlanadi va tomonlarning ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarib tugatish vaqtigacha yoki uning to'xtatilishigacha amal qiladi. Agar boshqacha qoidaga tomonlar kelishmagan bo'lsa, ushbu shartnoma nomuayyan muddatga tuzilgan deb hisoblanadi.

XIV. HUQUQ TANLOVI

14.1 Tomonlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi qo'llaniladi.

"EDFIX" MCHJ

Manzil: Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Xadra MFY, Xadra mavzesi, 1-uy

"Milliy Bank" Chilonzor tumani filiali

H/R: 20208000305728490001

MFO: 00450

INSN: 10983394

OKED: 85590

